



HAMKORLIK PEDAGOGIKASIDA INSONPARVARLIK YONDOSHUVI

Turg‘unov Mirjalol Mirzahamdam o‘g‘li
o’qituvchi

Nasirdinova Dinara

talaba

Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada uzliksiz ta’lim tizimida hamkorlik pedagogikasining bosqichma-bosqich o‘rganilishi haqida talqin qilinadi. Hozirgi paytda insonparvarlik pedagogikasi tarbiyalanuvchini o‘quv-tarbiya jaraenining faol, ongli, teng huquqli ishtirokchisi rolida ko‘ra oladigan, o‘z imkoniyatlari asosida rivojlantiruvchi ilmiy-nazariy tizim sifatida talqin etiladi

Kalit so‘zlar: ta’limni insonparvarlashtirish, pedagogika, pedagogik texnologiya, psixologiya, aktuallashtirish

ГУМАНИСТИЧЕСКИЙ ПОДХОД В КООПЕРАТИВНОЙ ПЕДАГОГИКЕ

Тургунов Миржалал Мирзахамдамович
учитель.

Насырдинова Динара
студентка

Ферганский государственный университет

Аннотация: В статье отмечается об изучении сотруднической педагогики работников в системе беспрерывного образования. В настоящее время педагогика гуманности в системе рассматривается воспитуемого в роли системы, умеющие видеть активного, разумного, равноправного участника в роли научно-теоретической системы, развивающееся на основе возможности.

Ключевые слова: человечество идея, сделать образования, педагогика, педагогическая технология, психология, действительность, активность

HUMANISTIC APPROACH IN COOPERATIVE PEDAGOGY



Turgunov Mirzalal Mirzahamdam
teacher
Nasirdinova Dinara
student
Ferghana State University

Resume: *The article overviews the gradual study of corporative pedagogics in continuous education system. At present, it is claimed that humanitarian pedagogics is the scientific-theoretical system which can consider the learners to be active, conscious, identical and capable participants of teaching process.*

Key words: *cooperative pedagogy, humanity pedagogy, humanity idea, making education, pedagogical technology, psychology actuality*

Insonparvarlik pedagogikasi zamonaviy tarbiya nazariyasi va amaliyotida XX asrning 50-yillari oxiri – 60-yillarining boshlarida AQSHda paydo bo‘lgan yo‘nalish bo‘lib hamkorlik pedagogikasi bilan uzviy va o‘zaro aloqadordir. Insonparvarlik pedagogikasining falsafiy-g‘oyaviy yo‘nalganligi pedotsentrizm g‘oyalariga yaqin. Pedotsentrizm – tarbiyaviy konsepsiya bo‘lib, bunda oilaning qiziqishlari faqat bolaga qaratiladi. Detotsentrizm ko‘proq bir bolali va to‘liqsiz oilalar uchun xos. Insonparvarlik pedagogikasida tarbiyaning bosh maqsadi shaxsning o‘z-o‘zini aktuallashtirishidir. Insonparvarlik pedagogikasi esa yangicha tarbiyalash va “progressivizm” pedotsentrizmi g‘oyalariga yaqinroq. Pedagogdan u bolani qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishni, uning sezgisi va ehtiyojlarini his etishni talab etadi. AQSHda u boshlang‘ich, o‘rtalig‘i, o‘rtalig‘i va oliy maktabda o‘quv kurslarining mazmuniga va qurilishiga ta’sir ko‘rsatadi.

“Insonparvarlik psixologiyasi”ning asosida XX asrning 50-yillarida AQSHda bixevidizm va freydizmga qarshi yuzaga kelgan hamda uning asosida tarbiyalanuvchining shaxsiy manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yish yotadi. Xususan, bu qarash vakillari tasodifan yuzaga keladigan kichik guruhlardagi mashg‘ulotlarni afzal biladilar.

Insonparvarlik ta’limotining asoschilaridan biri Karl Rodjersdir. O‘zining pedagogik qarashlarini K.Rodjers inson xulqidagi o‘zgarishlar asosi sifatidagi uning qobiliyatlarini shaxsiy tajribalarga tayangan holda o‘sadi, rivojlanadi va o‘rgatiladi, deb ta’kidlangan. Kimnidir o‘zgartirish, unga tayyor tajribani uzatish kerak emas. Faqat uning rivojlanishiga imkon beruvchi muhitni yaratish mumkin. K.Rodjers bunday muhitni yaratishni “qulaylashtirish” (ingl. facilitate) deb ataydi[2].

Bugungi kunda butun dunyoda qulay muhitni yaratuvchi o‘qituvchilarni fatsilitator deb atashadi. Bunday muhitni yaratish shart-sharoiti tarbiyachining bilimi

va intellektiga bog‘liq bo‘lmaydi. Undan faqat tarbiyalanuvchini nimani yaxshi ko‘rishi, nimaga qiziqishi, nima bilan shug‘ullanishini aniq belgilay olish talab etiladi. Fatsilitatorning muhim hissiyoti sifatida K.Rodgers empatiya, tarbiyalanuvchi shaxsiga ijobiy baho berish, fatsilitatorning tarbiyalanuvchiga muvofiqligini kiritadi. Faqat ana shunday sharoitda shaxs o‘z xulq-atvorini o‘zgartirish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

K.Rodgers an’anaviy pedagogikaning quyidagi qoidalaridan qoniqish hosil qilmaydi:

1. O‘qituvchi bilimlarni bayon etadi, o‘quvchilar ularni o‘zlashtirishga harakat qiladi.
2. Dars va imtihonlar – ta’limning asosiy tarkibiy qismlari. Dars bilimlarni shakllantirish shakli, imtihon esa egallangan bilimlarning darajasini aniqlaydi.
3. O‘qituvchi boshqaruvchi, ta’lim oluvchilar esa unga bo‘ysunuvchilar sifatida aks etadi.

Bu bilan bog‘liqlikda K. Rodgers ta’limning ikki turini ajratib ko‘rsatadi: oddiy bilimlar, faktlar bilan qurollantiradigan axboriy va ta’lim oluvchilarga ularning o‘z-o‘zini o‘zgartirishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishi uchun zaruriy, haqiqiy bilimlar beruvchi ahamiyatli ta’lim. Insonni shaxs sifatida shakllantiruvchi ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan yoki K. Rodgers fikricha, ahamiyatli ta’limdir.

O‘qituvchi o‘z faoliyatida o‘quvchilarining o‘z-o‘zini to‘la namoyon eta olishiga tayanishi zarur. Uning o‘qitishi o‘quvchilar katta qiziqish bilan hal etadigan, har doim ham o‘zi mustaqil murakkab vaziyatlardan chiqish yo‘lini topa olmaydigan, o‘qituvchining yordamiga tayanadigan va ijod qilishga takrorlanmas istakni hosil qiladigan hayotiy muammolar bilan o‘zaro harakatga kirishishi asosiga qurilishi kerak. O‘qituvchining roli o‘quvchilar bilan shunday shaxsiy o‘zaro munosabatlarni va yuqorida tilga olingan tendensiyalarni namoyon bo‘lishiga imkon beruvchi psixologik muhit tashkil etishda o‘z aksini topadi.

K.Rodgersning fikricha, insonni konsentrasiyadigan ta’limning natijalarini ta’lim muassasasidagi baholar bilan baholash mumkin bo‘lmaydi. Uning mezonlari egallangan bilimlarning miqdor va hatto sifat ko‘rsatkichlarida emas, aksincha bu o‘zgarishlar shaxsda, uning o‘sishi va rivojlanishida aks etadi. Ularga quyidagi turdagи o‘zgarishlar kiradi:

- inson o‘zini to‘la idrok eta boshlaydi;
- u ko‘proq o‘zini va o‘z tuyg‘ularini qabul qiladi;
- ko‘proq o‘ziga ishonch va avtonomen shakllanadi;
- o‘z oldiga real maqsadlar qo‘yadi, o‘zida komillikni ko‘radi;
- unda insoniy qiyofa shakllanadi;
- boshqa odamlarni qabul qilish va tushunish boshlanadi.

Bugungi kunda, insonparvarlik pedagogikasi haqida ko‘p gapirilmoqda va har qanday pedagogika ma’lum aniq tarixiy sharoitlarda shakllanadi. Shu sababli u haqdagi mulohazalar, unga abstrakt (mavhum) insonparvarlik yoki boshqa davr mezonlari nuqtai nazaridan qarash uni “insonparvar” kabi “insonparvar bo‘lmagan” sifatida ham baholashni yuzaga keltirishi mumkin. Pedagogikaning ilmiyligi, demak, uning insoniyligi ham unga xos bo‘lgan bola shaxsi mohiyatini tushunish, uni rivojlantirish vositalarini maqsadga muvofiq izlash darajasi bilan belgilanadi. Hamma davrlarda ham pedagogikaning rivojlanishi inson va jamiyatning ilg‘or talablariga mos kelishga intilgan. Odamlar o‘rtasidagi munosabatlarga, bolalarga ta’sir etish va ular bilan o‘zaro aloqalarda insonga qarshi vositalar, usullar va metodlar mavjudligi butunlay boshqa tushunchalarni ifoda etadi. Buni pedagogika emas, balki bolalarni to‘la itoatkorlik yoki vahshiylashish holatiga kiritish borasida mas’uliyatni bilmaydigan, odamiylikka zid tizim deb atash mumkin.

Aytib o‘tilganlarning barchasi pedagogikaning insonparvarligi yoki insonparvarlikka zidlik muammosining ahamiyati va qarama-qarshiliklarini aniqlab olish uchun ilm ahlini qiziqtiradigan bir qator masalalarni obyektiv aniqlab olishga majbur etadi.

“Insonparvarlik” tushunchasi mohiyatini, uning turlari va ilmiy pedagogika bilan munosabatlarini qanday talqin qilish kerak? “Falsafa qomusiy lug‘at”da insonparvarlik “Odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma’naviy fazilatlarni rivojlantirishga g‘amxo‘rlik qilish g‘oyalari bilan sug‘orilgan dunyoqarash” sifatida qaraladi. “Pedagogik ensiklopedik lug‘at”da esa, insonparvarlik shaxs sifatida inson, uning erkin rivojlanishi va o‘z qobiliyatlarini namoyon eta olishini qadriyat sifatida qabul qilish ekanligi uqtiriladi.

Keng ma’noda insonparvarlik – insonni shaxs sifatida qadriyat deb belgilaydigan, uning erkinlik, baxtga bo‘lgan huquqi, o‘zining qobiliyatlarini namoyon etishi va rivojlantirishi, ijtimoiy institutlarning baholash mezonlarida inson ravnaqini hisobga oladigan qarashlarning tarixiy o‘zgaruvchan tizimi, insoniylik – odamlar orasida kutiladigan me’yoriy munosabatdir.

Insonparvarlik asosida yana insonning cheksiz imkoniyatlari va uning komillikka doir intilishlari, o‘z qibiliyatlari, qarashlarini erkin namoyon etishga doir shaxs huquqini e’tirof etish turadigan, inson ravnaqini ijtimoiy munosabatlar darajasini baholash mezoni sifatida tasdiqlaydigan dunyoqarash tamoyili tarzida ham qaraladi. Hozirgi vaktda mazkur tamoyil pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri sifatida shakllantirildi.

Zero, insonparvarlik dunyoda insonga eng oliy qadriyat sifati – da qarashning yaxlit konsepsiyasidir. Bu konsepsiyaning asosi – shaxs qadr-qimmatini himoya etish, uning ozod, erkin rivojlanishga bo‘lgan huquqining tan olinishi; buning uchun

(hayotda, mehnatda, o‘qishda) mos qulay shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Shuning uchun ham hozirgi davrda ta’limni insonparvarlashtirishni uning tarkibiy kismiga kiritish zarur va muhim sanaladi. Lekin uni ta’limning tarkibiy qismiga kiritish uchun faqat o‘quv fanlari tarkibidagina emas, balki insonning qadr-qimmatini yuqori qo‘yuvchi o‘zaro munosabatlар madaniyatini tarkib toptiruvchi ta’lim muhitini yuzaga chikarishni talab etadi.

Ta’limni insonparvarlashtirish – uning mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini yangilash, ularning o‘zaro aloqasi va birligini ta’minalash orqali shaxsni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishga yunaltirishdir.

Shaxsning rivojlanishi va o‘quvchilarning ijtimoiy ahamiyatga ega sifat va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta’limning insonparvarlik mazmuniga yaqinlashish, ularni hayotda faol ishtirok etishga jalb etish, uning bilish bilan qo‘siluvni va madaniyatni o‘zlashtirish jarayoni so‘nggi yillarda sezilarli shaklland. Mazkur yo‘nalishda so‘nggi yillarda tarbiyalanuvchilar ongidagi bo‘shliq, ularning xulq-atvorini haddan tashqari qat’iy belgilash, ularga qattiq ta’sir etish, tanqidiy fikrlash tarziga ega bo‘Imagan qarashlardan voz kechish yordamida ko‘plab innovatsiyalar yo‘naltirildi. Bunday aqidaparastlikka qarama-qarshi o‘laroq, milliy va chet el pedagogikasida tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilishga yo‘naltirilgan, unda mustaqillikni shakllantiruvchi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar orasida insonparvar, ishonchga asoslangan munosabatlarni tarkib toptirish qoidalardan foydalanish, “ta’limni insonparvarlashtirish”, ya’ni insonparvarlik tamoyili yuzaga chiqadi. Bunday asosga qurilgan ta’lim esa, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim deb nomlanadi.

Ta’limni insonparvarlashtirish eng umumiy ma’noda, ta’lim jarayoni ishtirokchilarining munosabatlarini avtoritar pedagogik muloqot uslubidan demokratik muloqot uslubiga almashtirish asosiga tashkil etilishi bilan tavsiflanadi. Bunda asosiysi – tarbiyalanuvchi shaxsiga hurmat va ta’lim mazmunida ijtimoiy tajriba tarzida olingan insoniyat madaniyati bilan tanishtirish yo‘lida uning ma’naviy imkoniyatini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonining mohiyati ijtimoiy tajribani maqsadga yo‘naltirilgan tarzda shaxsiy tajribaga almashtirish yoki shaxsiy va ijtimoiy tajribani qo‘silishida namoyon bo‘ladi.

Ta’limni insonparvarlashtirish uning yetakchi tendensiyasi sifatida ta’limni insonga qaratish, uning individuallagini namoyon bo‘lishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratishni ifodalaydi. U insonni yuqori ehtiyojlari: o‘z-o‘zini namoyon etish, o‘z-o‘zini realizatsiyalash, ma’naviy, ijtimoiy va kasbiy shakllanishida maksimal darajada qoniqishga yo‘naltirilgan o‘z noyobligini yo‘qotish, hayot, tabiat dunyosi va madaniyatdan begonalashib ketish xavfidan himoyalanishga chaqiradi.

Uzluksiz ta’lim tizimining insonparvarlashuvi – uzluksiz ta’lim nazariyasi va amaliyotini tavsif etuvchi, dunyoqarashga oid qoidalari va tamoyillar yig‘indisi sifatida insonparvarlikka asoslanuvchi, inson qadr-qimmati va huquqiga hurmat,

uning taqdiri va har tomonlama rivojlanishiga g‘amxo‘rlikni aks ettiruvchi, bundan tashqari odamlar orasida haqiqiy insonparvar munosabatlar: o‘zaro bir-birini tushunish, o‘zaro hurmat, birgalikdagi hamkorlik, o‘zaro yordam kabilarni tarkib toptirish zarurligini ta’kidlovchi tushunchadir. Boshqacha aytganda, ta’lim jarayoni markazida ta’lim oluvchi shaxsini qaror toptirish.

O‘quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishni avtoritar pedagogikaning shaxsga pedagogik ta’sirini bekor qilish, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogikaga o‘tish tarzida pedagog va ta’lim oluvchilar o‘rtasida me’yoriy insoniy munosabatlarni tarkib toptirish bilan farq qilishi, ta’lim oluvchilarning shaxsiy erkinligi va faoliyatida haqiqiy ahamiyat kasb etish sifatida tushunish lozim.

Insonparvarlik nuqtai nazaridan ta’lim va tarbiyaning tub maqsadi shundaki, har bir tarbiyalanuvchi bilish va muloqot faoliyatining to‘la huquqli subyekti, tashabbuskor shaxs bo‘la oladi. O‘quv-tarbiya jarayonining insonparvarlashtirishning o‘lchovi qanchalik bu jarayon shaxsning o‘z-o‘zini realizatsiyalashi uchun sharoit yaratganligi, undagi tabiiy layoqatni yuzaga chiqarganligi, uning erkinlik, tashabbuskorlik va ijodkorlik qobiliyatlari bilan belgilanadi.

Ta’limning insonparvarlikka yo‘naltirilganligining natijasi sifatida birgalikda qayg‘urishga qobiliyatli, erkinlikka tayyorgarlik, insonparvarlikka yo‘naltirilgan tanlov va individual intellektual salohiyatga ega shaxsning shakllanishida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik jarayonni insonparvarlashtirishning umumiyligi masalalarini tahlil qilib, A.A.Melik-Pashayev uni amalga oshirishning yo‘llaridan biri “qandaydir fan doirasida kuchni sarflashda emas, turli bilim sohalari, madaniyat, atrof-borliqdan mashg‘ulot uchun ma’lumot erkin tanlab olinadigan va umumiyligi tarzda pedagogik vazifalarni birlashtiradigan” ta’lim mazmunini qayta tashkil etishda aks etadi, deb ta’kidlab o‘tadi. A.A.Melik-Pashayev yoshlarda “Men” tuyg‘usining katta imkoniyatlariga ishonch uyg‘ota oladigan pedagogning mavjudligini insonparvarlashtirishning ikkinchi yo‘li, deb hisoblaydi[3].

Xulosa qilib aytganda, hozirgi vaqtda insonparvarlik pedagogikasi tarbiyalanuvchini o‘quv-tarbiya jarayonining faol, ongli, teng huquqli ishtirokchisi rolida ko‘ra oladigan, o‘z imkoniyatlari asosida rivojlantiriluvchi ilmiy nazariy tizim sifatida talqin etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Pedagogika. // M.X.Toxtaxodjayevaning umumiyligi tahriri ostida. – T.: Iqtisod-Moliya, 2008. – B.78.
2. Роджерс К. К науке о личности// История зарубежной психологии. – Тексты. – М.: Изд-во МГУ, 1996. – С.253- 257.

3. Мелик-Пашаев А.А. Гуманизация образования: проблемы и возможности // Вопросы психологии. – 1995. - №5. – С.89-90.
4. Uljaevna U. F. et al. DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY OF PRESCHOOL CHILDREN IN ART GAME AS A PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 47-51.
5. Uljaevna U. F. et al. NECESSARY CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN FUTURE TEACHERS //Modern Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 4. – С. 444-448.
6. Uljayevna O. R. F., Saydamatovna S. Z. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING O'QUV-USLUBIY TA'MINOTI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B3. – С. 349-355.